

“O‘zmetkombinat” AJ aksiyadorlarning
umumiyligi qarori bilan
“TASDIQLANGAN”
2022-yil 30-iyundagi 56-sonli
bayonnomasi.

“O‘ZMETKOMBINAT” AJ BOSHQARUVI TO‘G‘RISIDAGI NIZOM



Данное пособие
было переведено
группой переводчиков
АО “Узбекхиминвест”
при участии
научных, научно-исследовательских
и технических специалистов
представляющих
различные отрасли науки.

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Ushbu Nizom “O’zmetkombinat” AJ boshqaruvi maqomini, uning a’zolarini tayinlash tartibini, shuningdek har bir a’zoning huquq va majburiyatlarini belgilaydi va tartibga soladi.

1.2. Mazkur Nizom O’zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida”gi Qonuni va “O’zmetkombinat” AJ Ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3. Jamiyat boshqaruvining vazifasi – “O’zmetkombinat” AJni rivojlantirish maqsadlariga erishish usullari, taktik usullarini izlash va amalga oshirish, “O’zmetkombinat” AJ daromadini oshirishni ta’minlash.

II. “O’ZMETKOMBINAT” AJ BOSHQARUVINI SHAKLLANTIRISH TARKIBI VA TARTIBI

2.1. “O’zmetkombinat” AJ boshqaruvining miqdoriy tarkibi “O’zmetkombinat” AJ Ustavi bilan belgilanadi.

2.2. “O’zmetkombinat” AJ boshqaruvi quyidagilarni o’z ichiga olishi mumkin:

- Bosh muhandis, boshqaruv raisi o’rinbosari, kombinat bosh buxgalteri va bosh mutaxassislarini;
- Asosiy ishlab chiqarish bo’linmalarini boshqaruvchi rahbarlarni;
- Mustaqil balansga ega bo’lgan bo’linmalarini boshqaruvchi rahbarlarni;
- “O’zmetkombinat” AJ faoliyatining muhim yo’nalishini ta’minlovchi boshqa mutaxassislarini.

2.3. “O’zmetkombinat” AJ boshqaruvining shaxsiy tarkibi Kuzatuv kengashi tomonidan ko’rib chiqiladi va tasdiqlanadi. Jamiyat boshqaruvi a’zolarini tayinlash, qoida tariqasida, xorijiy menejerlar ishtirok etishi mumkin bo’lgan tanlov asosida amalga oshiriladi.

2.4. Boshqaruv faoliyati aksiyadorlarning umumiyligi yig’ilishi tomonidan saylanadigan boshqaruv raisi tomonidan boshqariladi, u bilan 3 (uch) yil muddatga, lekin ketma-ket ikki muddatdan ko’p bo’lmagan muddatga ishga qabul qilish shartnomasi tuziladi.

2.5. Boshqaruv a’zolariga nomzodlarni ko’rib chiqish va tasdiqlashda qarorlar Kuzatuv kengashi tomonidan oddiy ko’philik ovoz bilan qabul qilinadi.

2.6. “O’zmetkombinat” AJ boshqaruvi a’zoliga nomzodlarni Kuzatuv kengashi tomonidan ko’rib chiqish va tasdiqlash shaxsiy asosda amalga oshiriladi. “O’zmetkombinat” AJ Boshqaruv a’zoliga nomzod uni jinoiy, ma’muriy va boshqa javobgarlikka tortish dalillari to’g’risida Kuzatuv kengashi a’zolarini xabardor qilishi shart.

2.7. Boshqaruv a’zoliga taklif etilgan nomzodlar Kuzatuv kengashi tomonidan ma’qullangandan so’ng, Boshqaruv a’zoliga har bir nomzod, shu jumladan rahbar bilan 3 (uch) yil muddatga tegishli lavozimdagisi vazifalarini bajarish uchun shartnomasi tuziladi.

2.8. “O’zmetkombinat” AJ boshqaruv raisi istalgan mutaxassisni “O’zmetkombinat” AJ boshqaruvidagi bo’sh turgan lavozim vazifalarini Kuzatuv kengashining eng yaqin yig’ilishigacha vaqtincha bajarishga ruxsat berish huquqiga ega. “O’zmetkombinat” AJ boshqaruv a’zolari vazifasini vaqtincha bajaruvchi bilan shartnomasi tuzilmaydi.

2.9. “O’zmetkombinat” AJ boshqaruv a’zolari “O’zmetkombinat” AJ Ustavini, shuningdek shartnomalarini buzganliklari uchun shartnomasi bir vaqtning o’zida bekor qilinishi va egallab turgan lavozimlaridan ozod qilinishi mumkin. “O’zmetkombinat” AJ Boshqaruv a’zosini chaqirib olish va u bilan tuzilgan shartnomani bekor qilish to’g’risidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan ko’philik (to’rtadan uch) ovozi bilan qabul qilinadi.

III. “O’ZMETKOMBINAT” AJ BOSHQARUVI VAKOLATI

3.1. Boshqaruv vakolatiga “O’zmetkombinat” AJ joriy faoliyatini boshqarishning barcha masalalari kiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi yoki Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

3.2. Boshqaruv a’zolari lavozim yo‘riqnomasi, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi shartlari, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining, “O’zmetkombinat” AJ Kuzatuv kengashi, boshqaruvi qarori va boshqaruv raisining ko‘rsatmalari bilan belgilanadigan vakolatlari doirasida ish yuritadilar.

IV. “O’ZMETKOMBINAT” AJ BOSHQARUV RAISI

4.1. Boshqaruv raisi aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan tayinlanadi. Kuzatuv kengashining raisi aksiyadorlik jamiyatni nomidan u bilan mehnat shartnomasi tuzadi.

4.2. Boshqaruv raisi aksiyadorlik jamiyatni faoliyatiga oid barcha masalalarni mustaqil hal qiladi, umumiy yig‘ilishning va Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatiga kiritilganlar bundan mustasno.

4.3. Boshqaruv raisi quyidagi huquqlarga ega:

- ishonchnomasiz aksiyadorlik jamiyatni nomidan ish yuritish, boshqa tashkilot va organlar bilan munosabatlarda uning manfaatlarini ifodalashni;

- “O’zmetkombinat” aksiyadorlik jamiyatining Ustavida yoki boshqa hujjatlarida nazarda tutilgan chegaralar doirasida mulk va mablag‘larni tasarruf etishni.

- shartnomalar va kontraktlar, shu jumladan mehnat shartnomalarini tuzishni;

- jamiyatning filiali yoki vakolatxonasi rahbarini tayinlashni;

- ishonchnomalar berishni;

- bank hisobvaraqlari va boshqa hisobvaraqlar ochishni;

- jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruqlar va ko‘rsatmalar berishni;

- xodimlar shtat jadvalini tasdiqlash, uni to‘ldirishni amalga oshirishni;

4.4 Boshqaruv raisi quyidagi majburiyatlarga ega:

- o‘z vakolatlari doirasida “O’zmetkombinat” AJning joriy faoliyatiga rahbarlikni uning samarali va barqaror ishlashini ta’milagan holda amalga oshirish, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashining mutlaq vakolatiga taalluqli masalalar bundan mustasno;

- “O’zmetkombinat” AJ aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlari ijrosini tashkil etish;

- “O’zmetkombinat” AJ ishlab chiqarish bo‘linmalari, sexlari va boshqa tarkibiy bo‘linmalarining o‘zaro hamkorligini samarali ta’minalash;

- “O’zmetkombinat” AJning shartnoma majburiyatlari bajarilishini ta’minalash;

- ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan miqdorda foyda olishni ta’minalash;

- “O’zmetkombinat” AJni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqishga rahbarlik qilish, ularning bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish;

- “O’zmetkombinat” AJ faoliyatida qonun hujjatlari talablariga rioxaliga etilishini ta’minalash;

- “O’zmetkombinat” AJda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi, tegishli holati va ishonchlilagini ta’minalash, tegishli organlarga yillik hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlarni o‘z vaqtida taqdim etish, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa ma’lumot oluvchilarga yuboriladigan jamiyat faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish;

- “O’zmetkombinat” AJning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni “O’zmetkombinat” AJ Auditorlik kengashi, “O’zmetkombinat” AJ Taftish komissiyasi yoki “O’zmetkombinat” AJ auditori talabiga binoan uzluksiz taqdim etish;

- tegishli organlarga davlat statistika hisobotlarini taqdim etishning to‘liqligi va o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash;
 - “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruvi yig‘ilishlarini tashkil etish, jamiyat nomidan hujjatlarni va Boshqaruv yig‘ilishlarini bayonnomalarini imzolash;
 - “O‘zmetkombinat” AJ xodimlarining bilim, tajriba va qobiliyatlaridan unumli foydalanish uchun “O‘zmetkombinat” AJni malakali kadrlar bilan ta’minlash choralarini ko‘rish;
 - mehnat va texnologik intizomni saqlash;
 - “O‘zmetkombinat” AJ xodimlarining ijtimoiy kafolatlari va mehnat muhofazasiga rioya etilishini ta’minlash;
 - Boshqaruv vakillarining jamoaviy muzokaralarda ishtirok etishini ta’minlash. Jamoa shartnomalari va bitimlarini tuzishda ish beruvchi sifatida ish olib borish. Jamoa shartnomasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarish;
 - “O‘zmetkombinat” AJ aksiyadorlar umumiyligi yig‘ilishi va Kuzatuv kengashiga o‘z vakolatlari doirasidagi ishlar holati to‘g‘risida hisobotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etish;
 - aksiyadorlarning amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ma‘lumotlarni olish, aksiyadorlarning umumiyligi yig‘ilishida ishtirok etish, dividendlarni hisoblash va to‘lash bo‘yicha barcha huquqlariga rioya qilish;
- ichki hujjatlar, amaldagi qonunchilik va boshqa me’yoriy hujjatlarga rioya qilish.
- 4.5. Boshqaruv raisining aniq huquqlari va majburiyatlari u bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan.

V. “O‘ZMETKOMBINAT” AJ BOSHQARUVI ISHI TARTIBI

- 5.1. “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruvi yig‘ilishlarini boshqaruv raisi o‘tkazadi.
- 5.2. “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruvi yig‘ilishlari bayonnomalarini yuritilishini “O‘zmetkombinat” AJ boshqaruvni kotibi tashkil etadi.
- 5.3. Kombinat boshqaruvi yig‘ilishini o‘tkazish uchun kvorum kombinat boshqaruvining saylangan a‘zolari sonining kamida yetmish besh foizini tashkil qilishi kerak. Kombinat boshqaruvi yig‘ilishida qarorlar hozir bo‘lganlarning ko‘philik ovozi bilan qabul qilinadi. Kombinat boshqaruvida masalalarni hal qilishda hay‘atning har bir a‘zosi bitta ovozga ega.
- 5.4. Jamiyatning boshqaruv kengashi yig‘ilishida bayonnomasi yuritiladi. Kombinat boshqaruvi yig‘ilishining bayonnomasi u o‘tkazilgandan keyin besh kundan kechiktirmay tuziladi.
- 5.5. Yig‘ilish bayonnomasida:
 - sanasi, vaqt va o‘tkazilish joyi;
 - yig‘ilishda ishtirok etadigan shaxslar;
 - yig‘ilishning kun tartibi;
 - ovozga qo‘yilgan masalalar, ular bo‘yicha ovoz berish natijalari;
 - qabul qilingan qarorlar ko‘rsatiladi.
- 5.6. Jamiyat boshqaruv yig‘ilishlarini jamiyat nomidan barcha hujjatlarni va jamiyat boshqaruvi yig‘ilishining bayonnomalarini imzolaydigan, o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan jamiyat boshqaruvini qarorlariga muvofiq jamiyat nomidan ishonchnomasiz ishlaydigan boshqaruv raisi tashkil qiladi.
 - Boshqaruv majlislari bayonnomalaridan ko‘chirma faqat;
 - Kuzatuv kengashining raisi va taftish komissiyasining raisiga;
 - boshqa mansabdor shaxslar va auditorning iltimosiga binoan faqat Boshqaruv raisining ruxsati bilan;
 - amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar va organlar (shu jumladan davlat organlari)iga beriladi.

VI. “O’ZMETKOMBINAT” AJ BOSHQARUV A’ZOLARING JAVOBGARLIGI

6.2. Boshqaruv a’zosi tomonlardan biri “O’zmetkombinat” AJ bo’lgan bitimdan moliyaviy manfaatdor bo’lsa, u qaror qabul qilinishidan oldin o’z manfaati to‘g‘risida ma’lum qilishi shart va ushbu masalani muhokama qilishda va ovoz berishda qatnashmaydi “O’zmetkombinat” AJ boshqaruvi a’zolari boshqa korxona egasining huquqlariga ega bo’lgan taqdirda, tomonlardan biri “O’zmetkombinat” AJ bo’lgan bitimda moliyaviy manfaatdor shaxslar hisoblanadi

6.3. Boshqaruv a’zolari o’zlarining rasmiy lavozimlarida berilgan huquqlardan, “O’zmetkombinat” AJ imkoniyatlaridan ular bilan mehnat munosabatlarida bo’lgan yuridik va jismoniy shaxslarning maqsadlari va manfaatlaridan foydalanmasliklari kerak.

6.4. “O’zmetkombinat” AJ boshqaruv kengashi a’zolari “O’zmetkombinat” AJ oldida O’zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga va “O’zmetkombinat” AJ Ustaviga muvofiq “O’zmetkombinat” AJ tomonidan yetkazilgan zararni to‘liq qoplash uchun o’z vazifalarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zarar uchun javobgardirlar.